

“Ekologik toza mineral va biologik parchalanadigan moylash materiallari” nomli monografiya chop etildi

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti olimlari tomonidan “Ekologik toza mineral va biologik parchalanadigan moylash materiallari” nomli monografiya chop etildi.

Monografiya mahalliy xom-ashyodan ishlab chiqarish va ekologik xususiyatlari yaxshilangan moylash materiallarini olishning ilmiy-texnik jihatlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Kitobda iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun resurslarni tejaydigan va ekologik toza materiallar asosida biologik parchalanish darajasi oshgan import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan materiallarni olish texnologiyasining ilmiy asoslarini tavsiflangan.



Texnologik reglament (TR) va yangi texnologik sxema bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil etish uchun texnik shartlar (TSh) shaklida normativ-texnik hujjatlarni tayyorlash va qo'shimchalarni tanlashda nanotexnologiya prinsiplaridan foydalanganligi sababli yeyilishga bardoshlilik, biologik parchalanishi baland yangi moylash materialining chiqarish tavsiflangan. Temir yo'l, reduktor, bo'ylama, korroziyaga

qarshi va biologik parchalanadigan moylash materiallarining yangi tarkibi arzon narxlarda yaxshilangan xususiyatlarga ega bo'lib analoglardan farqli bo'ladi. Ushbu asosiy pozitsiya hozirgi davrda neftni qayta ishlash sanoati rivojlanishining o'ziga xos xususiyatini belgilaydi, bunda xalq xo'jaligi ehtiyojlarini o'z neft mahsulotlari bilan to'liq qondirish, ularning assortimentini kengaytirish va innovatsion dasturlar uchun yangi texnologiyalarni joriy etish va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish istagi bilan bog'liq. Ularning ekspluatatsion xususiyatlarini sinovdan o'tkazish iste'mol korxonalarida - "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, respublikaning turli mintaqalaridagi fermer xo'jaliklarida amalga oshiriladi.

Monografiya neftni qayta ishlash sanoatidagi muhandis-texnik xodimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, shuningdek, neft kimyosi va neftni qayta ishlashga ixtisoslashgan bakalavr va magistr larga tavsiya etiladi.